



BOLALARDA O‘Z-O‘ZINI BAHOLASH TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH OMILLARI

Latipova Lobar To‘raboyevna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti

Xolyigitova Nasiba Xabibullayevna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti (PhD)

Maratov Timur G‘ayratovich

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti(PhD)

Bolalarda o‘z-o‘zini baholash tushunchasi va uning shakllanish jarayonini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda o‘z-o‘zini baholashning psixologik mohiyati, uning shaxs rivojlanishidagi o‘rni hamda unga ta’sir etuvchi asosiy omillar — oila muhiti, ta’lim jarayoni, ijtimoiy munosabatlar va individual tajribalar o‘rganildi.

Material metodlar.

Maktablarida tahsil olayotgan 7–14 yoshdagi bolalar ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida saralandi hamda ularning psixologik xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish maqsad qilib olindi. Tadqiqot jarayonida bolalarda o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlash va unga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Psixologik kuzatuv metodi yordamida bolalarning xulq-atvori va ijtimoiy faolligi tabiiy sharoitda o‘rganildi. Suhbat metodi orqali ularning o‘ziga bo‘lgan munosabati, ichki kechinmalari va o‘zini baholash xususiyatlari aniqlashtirildi. So‘rovnoma (anketa) usuli yordamida bolalarning o‘z-o‘zini baholash darajasi tizimli ravishda baholandi. Shuningdek, psixodiagnostik testlardan foydalanilib, o‘z-o‘zini baholashning miqdoriy ko‘rsatkichlari aniqlandi.

Natijalar

Tadqiqot jarayonida bolalarda o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlash maqsadida maxsus tuzilgan so‘rovnomalar hamda psixodiagnostik metodikalardan



foydalanildi. Jumladan, *Rozenbergning* o'z-o'zini baholash shkalasi asosida moslashtirilgan savollar tizimi qo'llanildi. So'rovnoma bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi, o'z qadrini anglash darajasi hamda ijtimoiy o'rniga nisbatan munosabatini baholashga qaratildi. Olingan natijalar tahliliga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning 52% ida o'z-o'zini baholash o'rtacha (adekvat) darajada ekanligi aniqlandi. Bu guruh bolalari o'z imkoniyatlarini real baholashga moyil bo'lib, ijtimoiy muhitga moslashuvi nisbatan yaxshi ekanligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, 28% bolalarda past o'z-o'zini baholash kuzatildi. Ushbu holat asosan tortinchoqlik, o'ziga ishonchsizlik, tashabbusning pastligi va ijtimoiy faollikning cheklanganligi bilan namoyon bo'ldi. Yana 20% bolalarda yuqori o'z-o'zini baholash darajasi qayd etildi. Ayrim holatlarda bu ko'rsatkich haddan tashqari yuqori bo'lib, bolalarning o'z imkoniyatlarini ortiqcha baholashi bilan xarakterlandi. Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, ijtimoiy muhit omillari muhim rol o'ynaydi: oilasida qo'llab-quvvatlovchi va ijobiy psixologik muhit mavjud bo'lgan bolalarning 65% ida adekvat yoki yuqori o'z-o'zini baholash kuzatilgan bo'lsa, salbiy yoki tanqid ustun bo'lgan muhitda tarbiyalanayotgan bolalarning 70% ida past o'z-o'zini baholash aniqlangan. Qo'llanilgan so'rovnomalar va psixodiagnostik metodikalar bolalarda o'z-o'zini baholash darajasini aniqlashda samarali bo'lib, olingan natijalar tadqiqot maqsadini to'liq yoritib berdi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, bolalarda o'z-o'zini baholash tushunchasi va uning shakllanish jarayonini tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalarda o'z-o'zini baholash darajasi ularning shaxsiy rivojlanishi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga bevosita ta'sir qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, oila muhiti, ta'lim jarayoni va ijtimoiy munosabatlar bolalarda o'z-o'zini baholashning asosiy shakllanish omillari hisoblanadi. Ota-onalar va pedagoglarning ijobiy qo'llab-quvvatlashi, rag'batlantiruvchi muhit va individual yondashuv bolalarning adekvat o'z-o'zini baholashini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, past o'z-o'zini baholash bolalarda tortinchoqlik, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Bolalarda sog'lom va adekvat o'z-o'zini



baholashni shakllantirish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bunda oila, maktab va tengdoshlar bilan ijobiy munosabatlarni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.